



Qo'llanmani ko'rish uchun
QR kodini skanerlang.



FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

CHANGYUTKICHNI



O'rnatishni boshlashdan oldin quyidagi yo'l-yo'riqlarni diqqat bilan o'qib chiqing. Ushbu amallar jihozning to'g'ri va xavfsiz o'rnatilishini kafolatlaydi. O'rnatib bo'lgandan so'ng bu yo'l-yo'riqlarni ma'lumot sifatida jihoz yaqinida qoldiring.

O'ZBEKCHA

VC73***** / VK73*****



MFL70207805
Rev.00_020226



UzTR517-046-2025
UzTR216-042-2025

www.lg.com

Copyright © 2026 LG Electronics. Barcha huquqlar himoyalangan.

MUNDARIJA

Ushbu qo'llanmada siz xarid qilgan
rusumga taalluqli bo'lmagan tasvirlar
yoki tarkib bo'lishi mumkin.
Ushbu qo'llanma ishlab chiqaruvchi
tomonidan qayta ko'rib chiqilishi
mumkin.

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI

FOYDALANISHDAN AVVAL BARCHA KO'RSATMALARNI O'QIB CHIQING	3
OGOHLANTIRISH.....	3
DIQQAT	7

O'RNATISH

Mahsulot haqida umumiy ma'lumot	9
---------------------------------------	---

ISHLATISH

Uchliklar va asboblardan foydalanish	11
--	----

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish.....	15
---	----

NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH

Servis markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval.....	22
--	----

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI

FOYDALANISHDAN AVVAL BARCHA KO'RSATMALARNI O'QIB CHIQING

Quyidagi xavfsizlik ko'rsatmalari kutilmagan xavflar hamda jihozdan ehtiyotsizlik yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan zararlarning oldini olishga mo'ljallangan.

Ushbu ko'rsatmalar quyida ko'rsatilganidek "OGOHLANTIRISH" va "DIQQAT" degan qismlarga ajratilgan.

Xavfsizlik xabarlari



Bu belgi xatarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan narsalar va operatsiyalarni ko'rsatish uchun namoyish qilinadi. Xavfning oldini olish uchun bu belgili qismni diqqat bilan o'qib chiqing va ko'rsatmalarga amal qiling.



OGOHLANTIRISH

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.



DIQQAT

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik yengil jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

OGOHLANTIRISH



OGOHLANTIRISH

Mahsulotdan foydalanish asnosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyot choralariga amal qiling:

Texnik xavfsizlik

- Ushbu jihoz jismoniy qobiliyati cheklangan (jumladan, bolalar), sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi kam shaxslar tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Agar ularning xavfsizligi uchun javobgar biror shaxs jihozdan foydalanishda ularni nazorat qilib tursa yoki ko'rsatma berib tursa, bu mumkin.
- Bolalar jihoz bilan o'ynamasligi uchun ularni nazorat qilish shart.
- Jihoz ishlayotgan vaqtda bolalar va uy hayvonlari nazorat ostida bo'lishi lozim.
- Elektr kabeli shikastlangan hollarda yetishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish uchun u ishlab chiqaruvchi, uning xizmat ko'rsatish agenti yoki boshqa malakali shaxslar tomonidan almashtirilishi kerak.
- Bu vakuum shlangi elektr ulanishlariga ega:
 - Suvni tortib olish uchun foydalanmang.
 - Tozalayotgan vaqtda uni suvga botirmang.
 - Shlangni vaqti-vaqti bilan ko'zdan kechirib, agar shikastlangan bo'lsa, foydalanishni to'xtating.
 - Shlangni qirqmang yoki uni boshqa biror usulda o'zgartirmang.

O'rnatish

- Agar changyutkich shikastlangan, noto'g'ri ishlayotgan, qismlarga ajratilgan yoki qismlari yetishmayotgan yoki singan, jumladan, elektr kabeli yoki sanchqisi shikastlangan bo'lsa, uni ishlatmang.
- Changyutkichni quyidagi joylarda o'rnatmang yoki saqlamang:
 - yomg'ir, shamol, yuqori namlik yoki quyosh tushishi kabi ob-havo sharoitlari ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan joylar;
 - isitish qurilmalari yoki ochiq olov yaqinida;
 - yonuvchi moddalar (efir, benzol, spirt, kimyoviy vositalar, yonuvchan aerosollar, insektisidlar, havo aromatizatorlari yoki pardoz vositalari), sanoat moylari yoki metall kukuni yaqinida.

- Bu jihoz yerga ulash shtekerisiz, ikki karra izolyatsiya qilingan elektr kabeli bilan jihozlangan. Elektr sanchqisi barcha mahalliy qoida va tartiblarga muvofiq o'rnatilib, yerga ulangan rozetkaga ulanishi lozim.
- Elektr shnurining elektr rozetkasiga to'liq suqilganligiga ishonch hosil qiling.
- Jihozni tarmoqqa ulashdan avval barcha boshqaruv tugmalari **OFF** holatida turganiga ishonch hosil qiling.
- Jihozni bir nechta teshikli rozetkalar, elektr ta'minot platalari yoki uzaytirma elektr kabellariga ulamang.
- Ushbu jihoz bilan ta'minlangan elektr vilkasini o'zgartirmang. Agar u rozetkaga to'g'ri kelmasa, to'g'ri rozetkani o'rnatish uchun malakali elektrikchini chaqiring.
- Changyutkichni o'rnatganda yoki siljitganda elektr kabeli qisilishi, ezilishi yoki unga shikast yetishidan ehtiyot bo'ling.

Ishlatish

- Changyutkichdan faqat ushbu qo'llanmada tavsiflanganidek foydalaning. Faqat ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan birikmalardan foydalaning.
- Bu changyutkich faqat uy sharoitida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, undan quyidagi joylarda foydalanish mumkin emas:
 - Noturar, tijoriy yoki sanoat hududlarida foydalanish;
 - Ochiq havoda, garaj yoki nam yuzalarda foydalanish.
- Elektr kabeli, sanchqisi yoki changyutkich tugmalariga ho'l qo'l bilan teginmang.
- Jihozni hech qachon kabelni tortgan holda o'chirmang. Doim sanchqini mahkam ushlab, uni rozetkadan chiqarib oling. Barmoqlaringiz elektr kabeli sanchqisi kontaktlariga tegmasin.
- Elektr kabelini haddan ortiq bukmang yoki ustiga og'ir buyum qo'ymang.
- Elektr shnurini shikastlamang, o'zgartirmang, ortiqcha bukmang, o'ramang, tortmang, siqmang yoki issiqlik ta'siriga qo'ymang.

- Jihoz nozik buyumlar bilan to'qnashib ketmasligi uchun yon-atrofigizga ogoh bo'ling. Tozalash vaqtida tozalanadigan joydagi boshqa jihozlarning elektr kabellarini chiqarib turing.
- Suv toshib ketsa, tokdan sug'uring va LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Changyutkichni stol yoki zinapoya kabi changyutkich qulab ketishi mumkin bo'lgan yuzalarda ishlatmang.
- Faqat malakali texniklar yoki LG Electronics servis markazining malakali mutaxassisigina jihozni qismlarga ajratishi, ta'mirlashi yoki o'zgartirishi mumkin.
- Changyutkichdan suyuqliklarni (suv, ichimlik va shu kabilar), hidli moddalarni (zarqand, shokolad, jonivorlar axlati va h.k.), metall buyumlarni (tig'lar, to'g'nog'ichlar va h.k.) yonuvchan, sirt faol moddalarni yoki shisha bo'laklarini tortishda foydalanmang.
- Tig'lar, qadagichlar, qirindilar, o'tkir buyumlar yoki issiq-sovuq kullarni tortishda foydalanmang.
- Kiyimlar, soch, barmoqlar yoki tananing boshqa qismlarini changyutkichning ochiq joylari va harakatlanuvchi qismlaridan nari tuting.
- Changyutkichdan uning kirish yoki chiqish portlari to'silgan holatda foydalanmang.
- Changyutkichni bo'yoq suyultirgich, kuyadan himoyalash vositalari, yonuvchan chang yoki boshqa portlovchi yoki zaharli moddalardan ajraluvchi bug' mavjud yopiq xonalarda ishlatmang.
- Changyutkichni devor, kursi yoki stolga suyantirmang.
- Agar uyda gaz sizishi (izobutan, propan, tabiiy gaz va h.k.) aniqlansa, changyutkich yoki elektr kabeli sanchqisiga teginmang va darhol xonani shamollating.
- Agar jihozdin begona ovoz, hid yoki tutun chiqayotganini aniqlasangiz, elektr kabeli sanchqisini darhol tarmoqdan uzib, LG Electronics mijozlar uchun axborot markazi bilan bog'laning.
- Changyutkichdan uning chang konteyneri va filtrlari o'z joyiga o'rnatilmagan holatda foydalanmang.

- Tarmoqdan uzishdan avval barcha boshqaruv elementlarini o'chirilgan holatga keltiring.
- Changyutkichni tashiganda chang konteyneri tutqichidan ko'tarmang. Tashish tutqichidan ko'taring.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Changyutkichni tozalayotganda yoki unga texnik xizmat ko'rsatilayotganda uni elektr tarmog'idan uzib qo'ying.
- Uchlik, shlang va jihoz korpusini suv, yuvish vositasi, polirol yoki havo aromatizatoriga tegishidan saqlang.
- Changyutkichni tozalayotganda unga yonuvchan moddalar (benzin, suyultirgich yoki atseton) yoki sirt faol moddalar (kir yuvish vositasi yoki atir sovun) purkamang.

Chiqitga chiqarish

- Qadoq materiallarini bolalarning qo'li yetmaydigan joyda saqlang. Qadoq materiallari bolalarning bo'g'ilish xavfini yuzaga keltiradi.

DIQQAT

DIQQAT

Jihozdan foydalanganda shaxsiy jarohatlarning xavfini kamaytirish, mahsulotning noto'g'ri ishlashi yoki mulkka shikast etishining xavfini kamaytirish uchun asosiy xavfsizlik ehtiyot choralari ko'rilishi kerak, jumladan, quyidagilar:

Ishlatish

- Ortiqcha qizib ketishdan, shikastlanishdan saqlanish uchun bu changyutkich ichki xavfsizlik qurilmasi bilan jihozlangan. Agar uzoq vaqt foydalanishdan keyin jihoz ortiqcha qizib ketsa, u avtomatik ravishda o'chib qolishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa, jihozni qayta ishga tushirishdan avval sovitish uchun havo yaxshi aylanadigan joyda taxminan bir soatga qoldiring.


- Changyutkich tushirib yubormang va unga hech qanday jismoniy ta'sir o'tkazmang.
- Nam yoki ho'l filtrlarni o'rnatmang.
- Elektr kabeli yoki sanchqisidagi namlikni yoki changni quruq mato bilan artib oling.
- Bir joyni uzoq vaqt davomida qayta-qayta tozalamang. Bu gilam yoki polga zarar yetkazishi mumkin.
- Filtrni pech, mikroto'lqinli pech, kiyim quritkichda yoki ochiq olov yaqinida quritmang.

O'RNATISH

Mahsulot haqida umumiy ma'lumot

Changyutkichni yig'ish

Tutqichidan boshqariladigan model




Qismlar		Qismlar		Qismlar	
1	Mahsulot korpusi	4	Chiqarish tugmasi	7	Uzaytirish trubasi
2	Kabelni avtomatik o'rab olish tugmasi	5	Shlang tutqichi	8	Tutqichdagi boshqaruv paneli
3	Elektr kabeli	6	Prujinali tamba	9	Gilam va pol uchun uchlik

Izoh

- Bu qo'llanmada keltirilgan tasvirlar haqiqiy mahsulotdagi tarkibiy qism va aksessuarlardan farq qilishi mumkin hamda ular mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida ishlab chiqaruvchi tomonidan hech qanday ogohlantirishsiz o'zgartirilishi mumkin.


Aksessuarlar

Nasadkalar



- 1 Gilam va pol uchun uchlik
- 2 Qattiq pol uchun uchlik*¹
- 3 Uy hayvonlari uchun uchlik*¹
- 4 Choyshab uchun uchlik*¹
- 5 Qattiq pol va burchak uchun uchlik*¹
- 6 Turbinali uchlik*¹

Asboblari va cho'tkalar



- 1 Tirqishli asbob
- 2 Chang cho'tkasi*¹
- 3 2 tasi 1 da cho'tka*¹

*1 Bu aksessuar faqat ayrim modellarda mavjud.

Texnik xususiyatlar

Modeli	VK73*****	VC73*****
Quvvat ta'minoti	230 V~, 50 Gts	230 V~, 50 Gts
Quvvat sarfi	1800 Vt (Maksimal 2000 Vt)	1600 Vt (Maksimal 1800 Vt)

ISHLATISH


Uchliklar va asboblardan foydalanish

Turli pol sharoitlarida changyutkichda tozalash

Uchliklarni shlang yoki uzaytirish quvuriga ulang.

Gilam va pol uchun uchlik

Bu uchlikni gilam, gilamcha yoki qattiq pol yuzasini tozalashda ishlatning.



❶ Gilam yoki gilamcha rejimi


❷ Qattiq pol rejimi

⚠️ DIQQAT

- Bu uchlikdan bolalar uchun Polivinilxlorid (PVC) o'yin matlari ustini tozalashda foydalanmang. Bu changyutkichda statik elektr quvvati jamlanishiga olib kelishi mumkin.

Qattiq pol uchun uchlik



Bu uchlikni qattiq pol yuzalarini (parket, plita, sopol va h.k.) tozalashda ishlatning.




Choyshab uchun uchlik

Choyshab uchun uchlik adyol va choyshablarni samarali tozalash imkonini beradi. U kuchli chang yutish va qisish harakatlari bilan choyshabdagi changni yo'q qiladi.


- Yupqa matolarning nasadkaga so'rilib ketishining oldini olish uchun ko'rpajild kabi yotoq materiallarini tozalaganda so'rish kuchini pasaytiring.






Uy hayvonlari uchun uchlik

Bu uchlikdan yumshoq yuzalarni va uy hayvonlari junini tozalashda foydalaning.




Qattiq pol va burchak uchun uchlik

Bu uchlikni qattiq polni yoki burchaklarni tozalashda ishlatning. Siz uchlikni burchakka taqasangiz, uchlik burchaklarni tozalash uchun qulay bo'lgan V shakliga kiradi.



Turbinali uchlik


Gilamli pollar (kovrolan) yoki gilamchalarni tozalashda shu uchlikdan foydalaning.



Anjomlar to'plamidan foydalanish


Tirqishli asbob

Burchaklar yoki tor joylardagi changlarni tozalashda shu asbobdan foydalaning.



Chang cho'tkasi


Romlar yoki mebellar kabi nozik yuzalarni tozalashda shu asbobdan foydalaning.



2 tasi 1 da cho'tka

Standart rejim


Romlar yoki mebellar kabi nozik yuzalarni tozalashda shu asbobdan foydalaning.



Cho'tka rejimi

Romlar yoki mebellar kabi nozik yuzalarni tozalashda shu asbobdan foydalaning.


- Asbobni Cho'tka rejimiga o'tkazish uchun sozlov tugmasiga bosib, oldinga itaring.



Changyutkichni tashish yoki to'xtatib turish

Changyutkichni tashish

Zinapoyalarni tozalayotganda changyutkichni ❶ tashish tutqichidan ko'tarib oling.




Changyutkichni to'xtatib turish

Tozalovni qisqa vaqtga to'xtatish uchun

Agar changyutkichni qisqa vaqtga to'xtatib turish kerak bo'lsa, changyutkich yonidagi to'xtash moslamasidan foydalaning.

❶ Changyutkichni o'chirish.

❷ Uchlikdagi ilgakni changyutkich yonidagi chuqurchaga soling.




Changyutkichni tashish yoki saqlash uchun

Changyutkich saqlash uchun uning ostidagi saqlash moslamasidan foydalaning.

❶ Changyutkichni o'chirish.

2 Changyutkichni tik holatda qo'ying.

3 Uchlikdagi ilgakni changyutkich tagidagi chuqurchaga soling.



TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

⚠ OGOHLANTIRISH

- Tok urmasligi uchun tozalashdan oldin jihozni tokdan uring. Bu ogohlantirishga amal qilinmasa, jiddiy jarohat, yong'in, tok urishi yoki o'limga olib kelishi mumkin.


Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish

Chang konteyneri, havo filtri va motor himoya filtrini tozalash


Chang konteynerini tozalash

Chang konteynerini bo'shatishdan oldin changyutkichni o'chirib, uni tarmoqdan uring.


- 1 Chang konteyneri darajasi MAX ❶ chizig'iga yetganda uni bo'shatish kerak.



- 2 Chang konteyneri tutqichini ushlab, keyin chang konteynerini ajratish ❷ dastagini bosing. Chang konteynerini chiqarib oling.



- 3 Chang konteyneri ❸ qopqog'ini ko'tarib, keyin chang konteynerini bo'shating.




⚠ DIQQAT


- Changyutkichni bir joydan boshqa joyga ko'chirganda chang konteyneri tutqichidan ko'tarmang. Chang konteyneri va korpusni ajratganda changyutkich korpusi tushib ketishi mumkin. Changyutkichni boshqa joyga ko'chirganda uni tashish dastagidan ko'tarish lozim.

Changyig'ichni tozalash

- 1 Chang konteyneri tutqichini ushlab, keyin chang konteynerini ajratish ❶ dastagini bosing. Chang konteynerini chiqarib oling.




- 2** Chang konteyneri ② qopqog'ini ko'tarib, keyin chang konteynerini bo'shating.



- 3** Chang konteyneri qopqog'i va chang konteynerini tozalang.




- 4** Namlik to'liq chiqib ketguncha uni soya joyda quriting.




Chang konteyneri qopqog'i va chang konteynerini yig'ing

- 1** Chang konteyneri qopqog'ini chang konteyneriga joylang.




- 2** Chang konteynerini jihoz korpusiga joylang.




Havo filtri va motor himoya filtrini tozalash

Chang konteynerini tozalagach, changyutkichning so'rish quvvati kamayib qolsa, havo filtri va motor himoya filtrini tozalang.


- 1** Changyutkich qopqog'ini uning tugmachasini bosib oching.




- 2** Chang ajratkichning **1** tutqichini ushlab, uni tashqariga chiqarib oling.




- 3** Yo'naltirgich teshigini ochish uchun yo'naltirgich qopqog'ining **2** dastagini torting va changni chiqarib tashlang.




- 4** Havo filtri qopqog'ining **3** dastagini bosib, havo filtri qopqog'ini oching va havo filtrini chiqarib oling.



- 5** Chang ajratkichdan **5** havo filtrini va **4** motor himoya himoya filtrini ajratib oling.




- 6** Havo filtri, motor himoya filtri va chang ajratkichni yuving. Filtrni issiq suv bilan yuvmang.



- 7** To'liq qurishi uchun havo filtri va motor himoya filtrini quyidagi rasmdagidek yuving.



- 8** Ularni 24 soatdan ko'p vaqt davomida soya joyda quriting.




⚠ DIQQAT

- Hidlar paydo bo'lishining oldini olish uchun qayta yig'ishdan avval filtrlarni yaxshi shamollatiladigan joyda quyosh nurlaridan panada kamida 24 soat quritib.
- Agar filtrlar shikastlangan bo'lsa, ulardan foydalanmang. Bunday vaziyatda LG Electronics servis markazi agenti bilan bog'laning. Filtrlarni kamida oyda bir marta yuving.


Chiqarish filtrini tozalash

Chiqarish filtrini (takror ishlatiladigan HEPA filtri) kamida yilda bir marta tozalang.

- 1 Chiqarish filtrini tozalash uchun ❶ tugmasini bosib va uni ochish uchun asosiy blokda chiqarish filtri qopqog'ini tortib oling.



- 2 Chiqarish filtri qopqog'ini ochib, ikkala tarafdagi ikkita ❷ tugmasini bosib, keyin chiqarish filtrini ajratib oling.




- 3 Chiqarish filtrini changdan tozalang.



Izoh


- Chiqarish filtrini tozalashda suv ishlatmang.

- 4 Chiqarish filtri ilgakini korpusdagi chuqurchaga soling va chiqarish filtri tugmasini "tiq" etgan tovush chiqquncha bosib.




Uy hayvonlari uchun uchlikni tozalash


- 1 Ikkala tarafdagi dastaklarni tashqariga siljiting.




- 2** Qopqoqni ochib, cho'tkani oling.




- 3** Aylanuvchi cho'tka yoki kiritish portida begona buyumlarni (iplar, soch) olib tashlang.



- 4** Cho'tkani yig'ish uchun bir uchini uchlik yonidagi **1** tirqishga qo'yib, cho'tkani joyiga tushiring. Qopqoqni yoping.



- 5** Ikkala tarafdagi dastaklarni o'rtaga siljiting.




- Uchlikka havo kirish yo'lini u ochilayotgan vaqtda qo'l yoki boshqa biror buyum bilan to'smang.
- Uchlik jihozga mahkamlanganda uning cho'tkasiga qo'l bilan teginmang.

Choyshab uchun uchlikni tozalash


Oson tozalash

Changni tortib olishda choyshab uchun uchlikni uzaytirish quvuridan ajratib olib, tirqish asbobini shlang tutqichiga mahkamlang.

Tepa




Past



Ichi

Agar uchlik ichidagi changni tirqish asbobi bilan chiqarib olishni uddalay olmasangiz, changni qo'lda olib tashlang.




⚠️ DIQQAT


- Changyutkichni o'chirgach, uchlikni qo'lga olishdan avval, biroz sovishini kuting.

Ajratish va tozalash


- 1 Pastki taglikni ajratish uchun choyshab uchun uchlikning orqa tomonidagi chiqarish tugmasini bosing.




- 2 Kirish portidan begona narsalarni (ip, soch) olib tashlang.




- 3 Pastki taglikni faqat sovuq, oqayotgan suvda yuving.



- 4 Pastki taglikdagi zarba dastagini tekislang.



- 5 Pastki taglikni yig'ish uchun pastki taglikni teshiklarga joylab, mahkamlang.




⚠ DIQQAT

- Choyshab uchun uchlikni suvga botirmang. Bu vibratorning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.


Chang konteynerini bo'shatish

- 1 Chang konteynerini olish uchun uni soat mili yo'nalishida burang.




- 2 Changni chiqindi xaltasiga to'king.

- 3 Chang konteynerini yig'ish uchun uni joyiga soling va soat miliga qarshi yo'nalishda burang.




Turbinali uchlikni tozalash

- 1 Havo qopqog'ini ajratish uchun uchlikning orqa tomonidagi chiqarish tugmasini bosing.



- 2 Cho'tka va ventilyatorni tozalashda tirqish asbobidan foydalaning.



NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH

Servis markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval

Jihozni ishlatish xatolik va nosozliklarga olib kelishi mumkin. Quyidagi jadvallarda xatoliklar yoki nosozliklarni hal qilish uchun ehtimoliy sabablar va eslatmalar keltirilgan. Muammolarning aksariyatini o'zingiz hal qilib, vaqtingiz va naqdingizni tejashingiz mumkin, chunki LG Electronics servis markaziga qo'ng'iroq qilishga hojat qolmaydi. Quyidagi jadval nosozliklarni bartaraf etishda sizga yordam beradi.

Hidlar

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Changyutkichdan begona hid chiqmoqda.	Hid qurilma ilk marta ishlatilganidan keyin 3 oy davomida sezildi. Changyutkich ilk marta ishlatilganidan keyingi 3 oy davomida o'zidan rezina hidini chiqarishi mumkin. Bu normal holat.
	Chang konteyneri chang bilan to'lgan. Chelakdagi chang ma'lum hidlarni chiqarishi mumkin. Qutini bo'shating va tozalang.
	Filtrda begona moddalar bor. Filtr uzoq vaqt davomida tozalanmagan bo'lsa, o'zidan hid chiqarishi mumkin. Kirish va chiqarish filtrini muntazam ravishda tozalab turing.
	Kirish filtri yoki chiqarish filtri nam yoki ho'l holatda o'rnatilgan. Kirish filtri yoki chiqarish filtrini oqayotgan suvda yuving. Hid paydo bo'lishidan saqlanish uchun qayta yig'ishdan avval kirish filtri yoki chiqarish filtrini havo yaxshi aylanadigan joyda quyosh nurlaridan panada kamida 24 soat quriting.

So'rish quvvati/Iliq havo

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
So'rish kuchi xaddan tashqari past.	Chang konteyneri chang bilan to'lgan. Changyig'ichni bo'shating.
	Filtrlar tiqilib qolgan. Kirish filtri, motor himoya filtri va chiqarish filtrini tozalang. Agar so'rish quvvati filtrlarni tozalashdan keyin ham kuchsiz bo'lsa, filtrlarni almashtiring.
	Kirish tirqishi tiqilib qolgan. Mahsulot korpusi yoki uzaytirma truba ichidagi yot buyumlarni olib tashlang.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
So'rish kuchi xaddan tashqari past.	Aylanuvchi cho'tka yoki kirish portiga begona narsa tiqilib qolgan. Aylanuvchi cho'tka yoki kirish portiga begona narsalarni (ip, soch) olib tashlang.
Qurilma korpusidan issiq havo chiqyapti.	Korpus ichidagi motor sovishi davomida qurilmadan issiq havo chiqadi. Bu me'yoriy holat.

Shovqinlar

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Jihoz xaddan tashqari baland shovqin chiqaradi.	Chang konteyneri chang bilan to'lgan. Chang konteynerini bo'shatib, uning orqasidagi kirish filtri va motor himoya filtrini tozalang.
Shlang ichidan huddi havo o'tmayotgandek tovush chiqaryapti.	Uchlik to'silgan. Uchlikni tozalang.
	Uzaytirish quvuri to'silgan. Uzun tayog yordamida uzaytirish quvuriga tiqilgan begona narsani olib tashlang.
	Shlang to'silgan. Shlang kirish joyini kaftingiz bilan bir necha marta to'sib-oching. Agar muammo bartaraf qilinmasa, LG Electronics servis markaziga murojaat qiling.

